

ISSN 2181-2764
2025



SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI




ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE METHOD OF ADAPTATION IN TRANSLATION AND ITS LINGUOCULTURAL-PRAGMATIC FOUNDATIONS*****Barnohon Shamsiyeva****PhD, Associate Professor at TDSHU**E-mail: barnokhonshamsiyeva@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** translation, literary translation, adaptation, rephrasing.**Received:** 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25**Abstract:** This article examines the nature of adaptation in translation and discusses its linguocultural and pragmatic foundations. Adaptation is presented as a strategy that ensures accurate and effective comprehension of the text by the target audience. The findings confirm its importance as a key tool for enhancing translation quality.**TARJIMADA ADAPTATSIYA USULI VA UNING LINGVOMADANIY-PRAGMATIK ASOSLARI*****Barnohon Shamsiyeva****PhD, TDSHU dotsenti**E-mail: barnokhonshamsiyeva@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston.***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** tarjima, badiiy tarjima, adaptatsiya, qayta ifoda.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjimada adaptatsiya usulining mazmuni, uning lingvomadaniy va pragmatik asoslari tahlil qilinadi. Tillar va madaniyatlar o'rtasidagi semantik va konseptual tafovutlarni bartaraf etishda dinamik ekvivalentlikning o'rni asoslanadi. Tadqiqot natijalari adaptatsiyaning tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.**МЕТОД АДАПТАЦИИ В ПЕРЕВОДЕ И ЕГО ЛИНГВОКУЛЬТУРНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ*****Барнохон Шамсиева****Кандидат наук, доцент ТДШУ**E-mail: barnokhonshamsiyeva@gmail.com*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: художественный перевод, перифразирование.

перевод, адаптация,

Аннотация: В статье анализируется сущность адаптации в переводе, а также её лингвокультурные и прагматические основания. Результаты исследования подтверждают её значимость как важного средства повышения качества перевода.

Kirish. Tarjima jarayonida aslida nafaqat ikki til, balki ikki xil madaniyat va ikki xil adabiy hamda hayotiy manzara bir-biri bilan to‘qnashadi. Shu sabab zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima jarayoni til almashinuvi bilan bir qatorda madaniyatlararo muloqot sifatida ham talqin qilinmoqda. Bunday yondashuv ilmiy muomalaga yangicha tushunchalarning kirib kelishiga, ilgari yetarlicha o‘rganilmagan ayrim atamalarning yangi aspektlarini ochib berishga xizmat qilmoqda. Shunday tushunchalardan biri — “adaptatsiya”. Garchi bu atama ko‘plab fan sohalarida qo‘llanib kelgan bo‘lsa-da, XX asrning birinchi yarmida tarjimashunoslik tadqiqotlarida deyarli e‘tibor markaziga chiqmaganligi kuzatiladi. “Adaptatsiya” termini L.L.Nelyubinning tarjima atamali lug‘atida quyidagicha izohlanadi:

1. Retseptorga bir xil ta‘sir etish uchun tasvirlangan vaziyatni o‘zgartirish orqali asl matn ekvivalentligiga erishish usuli.

2. Adaptatsiya deganda odatda matnga turli xil ishlov berish, ya‘ni uning mazmuni va shaklini soddalashtirish, shuningdek, asl holatida o‘qish uchun moslashmagan kitobxonlar tomonidan idrok etish uchun matnni qisqartirish tushuniladi.

3. Matnni o‘qish uchun yetarli darajada tayyor bo‘lmagan kitobxon uchun moslashtirish. Masalan, chet tillarini yangi o‘rganishni boshlaganlar uchun adabiy va badiiy asar matnini “yengillashtirish” [1, 12].

Ushbu ta‘rifning so‘nggi ikki qismi sovet tarjimashunosligi olimlarining aksariyat asarlarida “adaptatsiya” tushunchasiga bo‘lgan munosabatni aks ettiradi. Ya‘ni, unga yetarlicha “jiddiy” ilmiy e‘tibor talab qilmaydigan tarjima usuli sifatida qaralgan va ta‘riflarda ma‘lum darajada salbiy konnotatsiya ko‘zga tashlanadi. Masalan, A.V. Fedorov [2,15] tarjima matni asliga to‘liq mos kelishi zarurligini ta‘kidlab, “переделка”, “пересказ”, “сокращенное изложение” kabi “adaptatsiya” ko‘rinishlaridan imkon qadar qochish lozimligini qayd etadi va adaptatsiyani to‘laqonli tarjima sifatida tan olmaydi. Uning bu qarashi R.K.Minyar-Beloruhev [3,36] tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, u tarjimada axborotni to‘liq yetkazish muhimligini, adaptatsiya esa ma‘lumotni qisqartirilgan yoki o‘zgartirilgan holda umumiy mazmuni bilangina yetkazishini ta‘kidlaydi. Ya.I.Retsker esa “Теории перевода и переводческой практике” asarida hatto “adaptatsiya” terminidan foydalanmaydi. Uning o‘rniga “пересказ” atamasini qo‘llaydi va

mazkur masalada yuqoridagi olimlarning nuqtai nazariga ergashadi. Ushbu davr tadqiqotchilarining adaptatsiya masalasiga nisbatan befarq munosabatini V.V.Demetskaya ham o‘z ilmiy ishlarida qayd etib, sovet klassik tarjimashunosligida adaptatsiya tushunchasi “o‘gay qiz”ga o‘xshash mavqega ega bo‘lganini ta’kidlaydi.

O‘zbek sovet tarjimashunosligida ham adaptatsiya masalasi mustaqil maqola yoki monografiyalar darajasida keng yoritilmagan. G‘.Salomovning “Tarjima nazariyasi asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida “moslashtirish” so‘zi bir necha bor uchrasa-da, mazkur mavzu asosan “uslubiy moslashtirish” doirasida izohlanadi. Muallif “uslubiy moslashtirish yoki taqlidda ma’lum bir janr, ijtimoiy muhit, davr va boshqalarga xos bo‘lgan naql yoki nutq uslubiga taqlid, o‘xshatma yoki monandlik tushuniladi” [4,63], deb ta’kidlab, moslashtirishni tarjimonning manba asar muallifiga ma’lum darajada taqlidi sifatida talqin qiladi. 1980 yilda nashr etilgan “Tarjima san’ati” nomli maqolalar to‘plamida esa Yo.Is’hoqovning “Zullisonaynlik va tarjima” maqolasida adaptatsiya atamasi bir marotaba uchraydi. Unda “bir til asosida shakllangan tasvir uslubi ikkinchi bir til qonuniyatlari asosida qayta tahrir qilish, unga sayqal berish jarayoni amalga oshadi. Boshqacha aytganda, uslubda milliy adaptatsiya hodisasi sodir bo‘ladi”, deb izoh bergan bo‘lsa-da, bunda “adaptatsiya” tushunchasi lingvopragmatik nuqtai nazardan yoritilgani yaqqol ko‘rinadi.

Adaptatsiya masalasiga V.N.Komissarov o‘z asarida jiddiy yondashib, adaptatsiyani ikkiga: uslubiy (stilistik) adaptatsiya hamda pragmatik adaptatsiyaga bo‘lib ko‘rib chiqadi. Pragmatik adaptatsiya V.N.Komissarovning ta’rificha, “tarjima receptori uchun ta’sir qilib kommunikativ effektini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan tarjima usuli”dir. N.Garbovskiy ham “tarjima matnida asl matnga teng kommunikativ ta’sirga erishishni maqsad qilgan pragmatik shartli o‘zgarishlar”ga [5,395] adaptatsiya deb ta’rif beradi. Va uning fikricha, adaptatsiyaga ehtiyotkorlik bilan murojaat qilish darkor. Zero, ushbu usulning yaxshi tomoni — tarjima matni kitobxoniga asl matn ma’nolarini osonlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomoni esa — madaniyatlararo farqlarni kamaytirib, “hamma yerda shunday ekan” kabi yolg‘on tasavvur uyg‘otishi ehtimoli mavjud [5,397]. Ko‘rinib turibdiki, XX asrning ikkinchi yarmidan keyin rus tarjimashunoslik maktabining ham adaptatsiya masalasiga bo‘lgan qarashi tarjimada kommunikativ effektini saqlab qolish nuqtai nazaridan bir oz “yumshagan”. Fransuz tarjimashunoslik maktabida adaptatsiya masalasiga nisbatan yondashuv nisbatan “tabiiy” va amaliy deb baholanadi. J.-P.Vine va J.Darbelne adaptatsiyani tarjima texnikasi sifatida talqin qilib, uni quyidagicha ta’riflaydilar: agar asl matnda bayon etilgan vaziyat maqsadli madaniyat uchun begona bo‘lsa, tarjimon tarjima matni auditoriyasiga xos bo‘lgan, funksional jihatdan teng keluvchi yangi vaziyatni yaratishi lozim. Ularning fikricha, adaptatsiya — madaniy nomutanosibliklar yuzaga kelgan holatlarda ekvivalentlikka erishish uchun qo‘llaniladigan amaliy tarjimaviy protseduradir [6,3].

“Terminologie de la Traduction: Translation Terminology” nomli ko‘p tilli izohli lug‘atda ham adaptatsiya shunga yaqin tarzda ta‘riflanib, u “maqsadli auditoriya ehtiyojlariga muvofiqlikni ta‘minlash uchun asl matn tilidagi ijtimoiy-madaniy realiyalarni maqsadli madaniyatga mos realiyalar bilan almashtirish” jarayoni sifatida izohlanadi [6,4]. Adaptatsiya tushunchasi atrofidagi nazariy bahslar, uning mazmuniy chegaralarining noaniqligi va ayrim tadqiqotchilarning unga nisbatan salbiy munosabatlari haqida fikr yuritar ekan, Jorj Bastin ushbu tushunchani to‘rt nazariy yo‘nalish doirasida tahlil qilishni taklif etadi:

- Tarjima usuli (Translation strategy)
- Janr (Genre)
- Metatil (Metalanguage)
- Sodiqlik (Faithfulness)

J. Bastin adaptatsiyaning tarjima usuli sifatidagi mohiyatini Vine va Darbelning yuqoridagi ta‘rifiga suyangan holda belgilab, uni amaliy va obyektiv yo‘l sifatida baholaydi. Janr nuqtai nazaridan esa u drama, reklama, subtitrlash va bolalar adabiyotini adaptatsiya ehtiyoji yuqori bo‘lgan tarjimaviy sohalar sifatida ko‘rsatadi. Metatil doirasida didaktik materiallar tarjimasida tilning o‘quvchi tomonidan qabul qilinishi va tushunish darajasi muhim omil sifatida qayd etiladi. “Sodiqlik” mezonidan qaraganda esa adaptatsiya tarjima matnining aslga mazmuman qay darajada yaqin qolishi nuqtai nazaridan baholanadi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, ushbu turlardagi adaptatsiya usullari matnning umumiy mazmuniga putur yetkazmaydi. Aksincha, asl mundarija saqlangan holda, ayrim elementlar tarjima qabul qiluvchilari uchun qulay, o‘zlashtirilishi oson va madaniy jihatdan tanish shaklda qayta ishlanadi. Natijada tarjima matni funksional jihatdan muvozanatli, kommunikativ maqsadga muvofiq va maqsadli auditoriya talablariga mos holatga keltiriladi.

Demak, bir tildan boshqasiga tarjima qilganda, ikki til o‘rtasidagi jiddiy leksik-grammatik farqlar bilan birgalikda, o‘sha tillarda so‘zlashuvchi xalqlar yashayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar hamda kishilar ongida shu omillar taqozo-si bilan tug‘ilgan tasavvur, tushuncha, e‘tiqodlar o‘rtasidagi katta tafovutlarga duch kelinishi kuzatildi. Tarjimon ushbu so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilganda, madaniyatga xos bo‘lgan so‘zlarning ekvivalenti asl matndagi so‘z ma‘nosini berkitishi yoki umuman tushirib qoldirishi mumkin. Chunki turli til, madaniyatlar o‘zaro aloqa-ga kirishganda ma‘nolar assimetriyasi yuzaga kelib, bo‘shliq ko‘zga tashlanadi. Demak, “tarjima bu til kodining oddiy o‘zgarishi emas, balki matnni boshqa madaniyat prizma-si orqali uni idrok etish uchun moslashtirish” ekanligini hisobga olish zarur.

N.A. Fenenko lingvomadaniyat nuqtai nazaridan adaptatsiyaning o‘rganib, asl matnni chet tilida qabul qiluvchi asliyat g‘oyasini to‘liq tushunishi uchun uni boshqa lingvomadaniy makonga ma‘lum usullar yordamida moslashtirish deb tushuntirsa, Komissarovning ta‘rifiga ko‘ra,

adaptatsiya — bu “asl mazmuni tarjima matnida boshqa shaklda ifodalangan, tillararo muloqotning vazifasi”. Ya’ni tarjima matni asliyatning ekvivalentiga erishishi uchun berilgan soʻzni boshqa shakldagi ifodasidir.

Shunday ekan, adaptatsiya nafaqat tillar assimetriyasida, balki madaniyatlar assimetriyasida ham qoʻllaniladi. Shu jihatdan olib qaralganda, adaptatsiya matnning ma’no tizimini saqlab qolish, shunga oʻxshash kommunikativ ta’sirga erishish uchun aynan zarur boʻlib chiqadi. Tarjimada pragmatik adaptatsiyani e’tiborga olmasdan tarjima qilish esa ba’zan tarjima matni oʻquvchisida asl matn muallifi nazarda tutmagan mutlaqo boshqa assotsiatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Tarjimon tarjimada nimani saqlash, nimani e’tiborga olmaslik yoki oʻzgartirishi mumkinligi haqida ish jarayonida tarjimaning asosiy tamoyillari asosida qaror qabul qiladi. Agar u asliyatning butunligini, lisoniy shaklini takrorlamoqchi boʻlsa, metaforani metafora bilan, epitetni esa epitet bilan tarjima qilishi lozim. Shunday ekan, tarjimada adaptatsiyani e’tiborga olmasdan tarjima qilishlik ba’zan tarjima matni oʻquvchisida asl matn muallifi nazarda tutmagan mutlaqo boshqa assotsiatsiyani keltirib chiqarishi mumkin.

Adaptatsiyani qoʻllash sabablari til birliklari jihatidan emas, balki, asosan, asliyat matni va tarjima matni madaniyatlarining turlicligi, oʻquvchiga asliyat matni gʻoyasini yorqinroq yetkazib berish uchun qoʻllaniladi. Madaniy assimetriya hodisasini Yu. Naida batafsil bayon qilgan boʻlib, uni tushuntirishdan avval, uslubiy va dinamik ekvivalentlikni tushuntirib oʻtadi. Uslubiy ekvivalentlik asliyat matni va tarjimaning mazmun va ifoda doirasining mos kelishiga asoslanadi. Dinamik ekvivalentlik esa teng ta’sir printsipiga, ya’ni asl nusxa va tarjima oʻquvchilari reaksiyalarining mos kelishiga asoslanadi. Dinamik ekvivalentlikka adaptatsiya orqali erishiladi, ya’ni tarjimon tomonidan reseptor (tarjima matni oʻquvchisi) uchun tushunarsiz deb baholangan predmetli holatni tarjima tili madaniyatiga mos keladigan predmetli holatga almashtirish. Olimning fikricha, gohida asar oʻquvchisi oladigan reaksiyani saqlab qolish uchun matnni har turdagi, shu jumladan, radikal oʻzgarishlarga duchor qilish kerak. Chunki ba’zi oʻrinlarda matnni saqlab qolib, asliyat oʻquvchisi erishgan ta’sirga yaqinroq borishning iloji ham yoʻq. Albatta, bunda tarjimaning maqsadiga qarab turli holatlarda u yoki bu usullar ustunlik qilishi mumkin. J.P. Vine va J. Darbelning fikriga koʻra, tarjimada adaptatsiyadan voz kechish nafaqat tuzilishga, balki gʻoyalar, fikrlar va ularning ta’sir kuchiga ham ta’sir qilishi mumkin [6,34].

Tarjimaning adaptatsiya usuli orqali tarjimon dinamik ekvivalentlik tamoyillariga asoslangan holda asliyat matnidagi tarjima oʻquvchisi uchun noaniq yoki tushunarsiz boʻlgan jihatlarni bartaraf etishga intiladi. Bunda matnga zarur qoʻshimchalar kiritilishi yoki ayrim soʻzlarning almashtirilishi hisobiga qabul qiluvchi tomonidan matnning toʻgʻri idrok etilishi ta’minlanadi. Fikrni yanada kengroq izohlaydigan boʻlsak, adaptatsiya shundan kelib chiqadiki, tarjima matni oʻquvchilari asliyatdagi begona voqeliklarni tushunolmasligi sababli emas, balki

asliyat va tarjima tilida “til manzarasi” (lingvokulturologik dunyoqarash) turlicha bo‘lgani uchun predmet va tushunchalar haqidagi assotsiatsiyalar farqlanadi. Shu bois matn adaptatsiyasining asosiy mezonini uning pragmatik yo‘nalishidir.

Olimlar qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, tarjima matni tarjima qilingan til jamiyati tomonidan oson qabul qilinsa va tarjima o‘quvchisi asliyat o‘quvchisining idrokiga yaqin ta’sir olishi ta’minlansa, bunday tarjima sifatli deb baholanadi. Bunga erishish uchun ko‘pincha matnning tashqi shaklini aynan takrorlashdan ko‘ra, pragmatik adaptatsiyani qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshqa dinga mansub xalqlar adabiyotini tarjima qilish tarjimon uchun har doim turli muammolar va murakkabliklar tug‘dirgan. Bunday hollarda tarjimon mehnati ikki baravar ortadi: bir tomondan asliyat mazmunini to‘laqonli aks ettirish, ikkinchi tomondan esa o‘quvchi uchun matnni tushunarli qilish vazifasi turadi. Chunki boshqa dinlarga oid termin va tushunchalarni tarjima qilish o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirmasligi, shu bilan birga, u e’tiqod qiluvchi diniy ta’limotga zid kelmasligi zarur [7,8].

Diniy realiyalar tarjimasi bo‘yicha ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimalarda diniy terminlar, e’tiqodiy tushunchalar, payg‘ambar va avliyolar nomlari, ular bilan bog‘liq mo‘jiza va voqealarga ishoralar berishda ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yilgan. F.Sapaevaning “Maxtumquli she’rlari o‘zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili” nomli dissertatsiyasida diniy-ma’rifiy mazmundagi she’rlar tarjimasida quyidagi kamchiliklar kuzatilgani qayd etiladi: “mafkuraviy ta’sir sabab diniy mazmundagi band va baytlarni qisqartirish; hukmron mafkura tufayli matnni o‘zgartirish; diniy terminlarni tushunmay noto‘g‘ri talqin qilish; ilohiy kitoblar, farishtalar, payg‘ambarlar, avliyolar va diniy shaxslar nomlarini noto‘g‘ri berish; ayrim noto‘g‘ri tarjimalar uchun berilgan havolalarda ham xatoga yo‘l qo‘yish va boshqalar”. Muallif bunday nuqsonlarni, birinchi navbatda, sovet davridagi mafkuraviy bosim, ikkinchidan esa tarjimonlarning islom dini bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmagani bilan izohlaydi[8].

R.H.Shirinova esa diniy realiyalar tarjimasidagi xatolarni quyidagi to‘rt asosiy sabab bilan izohlaydi:

- boshqa xalqlarning diniy e’tiqodi va urf-odatlarini yetarli bilmaslik, mazhabiy tafovutlarni farqlamaslik;
- tarjima o‘quvchisi saviyasini hisobga olib, asliyat matnini ataylab soddalashtirishga urinish;
- har qanday diniy termin va tushunchalarni barcha dinlar uchun umumiy bo‘lgan atamalar bilan ifodalash yoki tarjimada qisqartirib yuborish;
- tarjima asarini o‘zbek hayotiga moslashtirish jarayonida boshqa dinlarga mansub terminlarni islomiy atamalar bilan almashtirish [7,122].

Xulosa. Darhaqiqat, diniy tushuncha va realiyalarni tarjimada to‘g‘ri ifodalash tarjimondan yuqori darajada mahorat talab qiladi. Ayniqsa, diniy realiyalarni berishda lisoniy birlikning uslubiy vazifasini to‘g‘ri aniqlash zarur bo‘ladi. Agar aslyat va tarjima tilining tili, millati, dini tubdan farq qilsa, adaptatsiyani chetlab o‘tishning imkoni yo‘q. Hatto ayrim holatlarda adaptatsiya badiiy asarning umumiy g‘oyasiga zarar yetkazmagan holda tarjima asarida kommunikativ effektni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan nazariy mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, adaptatsiya nafaqat lingvistik farqlar, balki madaniy tafovutlarni ham uyg‘unlashtirishning muhim vositasidir. U matnning mazmuniy yaxlitligini saqlagan holda, uni o‘quvchi uchun tushunarli va funksional jihatdan maqsadga muvofiq qilishga xizmat qiladi. To‘g‘ri qo‘llangan adaptatsiya usuli tarjima jarayonida semantik aniqlik, uslubiy moslik va kommunikativ samaradorlikni ta‘minlaydi. Demak, adaptatsiya zamonaviy tarjima nazariyasida ekvivalentlikka erishishning eng muhim pragmatik strategiyalaridan biri sifatida baholanishi o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. – М., 2003.
2. Федоров А.В. Основы общей теории переводов (лингвистические аспекты). – М. и СПб., 2002. – С. 15.
3. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода. – М., 1996. – С. 36.
4. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
5. Гарбовский Н.К. Теория перевода, – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2007. С. 404.
6. Vinay J.-P. et Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l’anglais. Méthode de traduction. Paris, Didier et Montréal, Beauchemin, 1958. 331 p.
7. Shirinova R.H. Diniy realiyalarni badiiy tarjimada qayta yaratishning ayrim tamoyillari (Fransuz adabiyotining o‘zbek tilidagi tarjimalari misolida). dis. ... fil.fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2002. – B. 122.
8. Sapaeva F.D. Maxtumquli she‘rlari o‘zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili. avtoref. dis. ... fil.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD): 10.00.06 / Sapaeva Feruza Davlatovna. – Toshkent, 2018. – B. 19–20.